



JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQASIDA SOVETLAR DAVRIDA BRONZA DAVRIGA OID MANZILGOHLARNING O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI

Rasulova Sevara

Termiz davlat universiteti

1 kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6529344>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Sovet davri,
O'zbekiston O'rta Osiyo,
Janubiy Turkmaniston,
bronza davri, madaniyat,
Sopolli, Jarqo'ton,
Nomozgoh, Anau, akademik
Yahyo G'ulomov, B.
Litvinskiy, A.Asqarov, V.
Sarianidi, Sh. Shaydullayev.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sovet ittifoqi davrida bronza davriga oid O'zbekiston mintaqasidagi Sopolli va qo'shni hududlardagi unga turdosh madaniyatlar xususida bir qator fikrlar keltirib o'tilgan.

So'ngi bronza davri taxminan Miloddan avvalgi II mingyillikning II yarmida Jahon tamaddunida xususan Qadimgi Sharqda bir necha sivilizatsiyalar qaror topish jarayonida O'rta Osiyo zaminida ham bronza davri yodgorliklari hisoblanmish Sopolli Madaniyati deb atalgan madaniyat qaror topdi. Ushbu madaniyat sohibkorlarining o'q ildizlari bevosita va bilvosita o'zaro xalqlarning ko'chishi u yoki bu ta'sirlar ostida siljishi, albatta bu yerda tabiiy iqlimning ta'siri juda kattadir. Aynan bir ildizini Qadimgi Shumer, Elam va Xarappa dehqonchilik madaniyatlari qatorida holbuki bu madaniyatlar ta'sirida shakllandi va rivojlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" Respublika ilmiy seminarining 78-

umummilliy yig'inining "O'zbek davlatchiligi tarixida Surxon vohasi" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda ustoz A.A. Asqarov Sopolli madaniyatining shox yodgorligi Jarqoton majmuasini Qadimgi Sharqning har qanday shahar-davlati bilan raqobatlasha oladi deb yana bir barilla ayta oldi. Hattoki ushbu majmua Shimoliy Baqtriyaning poytaxti bo'lishi mumkinligi haqida nazariyaga ham tamaltoshi qo'yildi.¹

Dastavval ushbu madaniyat sohibkorlari Janubiy Turkmanistonning Murg'ob vohasi hududlarida shakllanib, so'ngra ma'lum bir tarixiy omillar sharoitida Amudaryo daryosining Qadimgi

¹ Akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" Respublika ilmiy seminarining 78-umummilliy yig'ini nutqidan.



Sherobod daryo o'zanlarini o'zlashtirib o'z manzilgohlariga asos soladilar.

Miloddan avvalgi II mingyillikning II yarmida Janubiy Turkmanistonning Murg'ob vohasi hududida Auchindepe, Kellidepe, Gonurdepe ya'ni "Avesto"da nomlari zikr etilgan viloyatlar "Mauri" qad ko'targan. Aynan shu paytda Murg'ob vohasining shimoliy-sharqiy tomonida, shimoliy Afg'onistonning Axcha daryosining quyi havzalarida Dashtli dehqonchilik madaniyati, Janubiy O'zbekistonning Ulonbuloqsoy va Bo'stonsoy havzalarida Sopolli madaniyati nomi ostida bir necha dehqonchilik manzilgohlari shakllandi va qaror topdi.²

O'zbekistonda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi jarayonini Qadimgi Sharq dunyosi davlatchiligi bilan qiyoslash Ustoz Sh.B. Shaydullayev tadqiqotlarida keng o'rin olgan bo'lib quyidagi tartibda davrlashtiriladi. "Ilk davlatlarning qaror topishi Miloddan avvalgi IV mingyillikda Mesopatamiyada, Miloddan avvalgi III mingyillikda Sharqda Eron va Hindiston vohalarida va miloddan avvalgi III mingyillikning so'ngida esa Janubiy Turkmanistonning Tajang, Murg'ob vohalarida, miloddan avvalgi II mingyillikning boshlarida Sopolli madaniyati va unga turdosh Dashtli madaniyati yodgorliklari qad ko'tardi.³

Sopolli madaniyatini davrlashtirish uning xronologiyasiga doir qator asarlar bitildi. Ilk marotaba A. Asqarov va A. Abdullayev tomonidan 1983-yilda Toshkentda rus tilida Sovetlarning mustabid hukmronligi ostida "Jarqo'ton"

nomli risola dunyo yuzini ko'rdi.⁴ Jarqo'ton yodgorligi misolida Ustoz mualliflar tomonidan O'zbek davlatchiligi va uning shakllanish tarixini yanada qadimiylashtirish imkoni yaratildi. Bu O'zbek davlatchiligi uchun keskin tub burilish davrini boshdan kechirdi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu majmuani o'rganilish jarayonida mahalliy va xorij mualliflar tomonidan turlicha fikr va munozaralarga sabab bo'ldi va u hali hanuz davom etmoqda. A. Asqarov va V.M.Ionesov tomonidan qabrlarning o'rganilish misolida ilk sinfiy munosabatlar, 1994-2003-yillarda O'zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasi, T.Shirinov muallifligida Jarqo'ton majmuasini O'zbekiston hududidagi eng qadimiy shahar sifatida, Sh.B.Shaydullayev rahbarligida esa "Jarqo'ton bu- yangi nom tipidagi Shahar-davlatdir". Unda ilk davlatning arxeologik belgila to'la-to'kis kuzatiladi, deya izoh qoldirganlar.

Demak bis ushbu risolada Jarqo'ton majmuasini Ustoz A.A.Asqarov tadqiqotlarida o'rganilish tarixshunosligiga asosiy e'tiborni qaratmoqchimiz. Jarqo'ton qabristoni jami umumiy yer maydoni 20 gektar bo'lib, shundan 1 gektari o'rganilgandir. Jami 731 ta qabr ochib o'rganilgan. Ushbu madaniyat o'rganilishi jarayonida muallif tomonidan Sopolli madaniyati quyidagi tartibda davrlashtiriladi: Sopollitepa, Jarqo'ton, Ko'zali va Mo'lali. Albatta bu risoda Bo'ston bosqichi alohida tarkib sifatida kiritilmagan. Ammo zamonaviy adabiyotlarda quyidagicha keng o'rin berilgan: "Shimoliy Baqtruyaning so'ngi bronza davrida 3 ta yirik tarixiy va

² Asqarov.A.A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent. O'zbekiston. 2019. 146-bet.

³ Shaydullayev. Sh.B. "O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (Shimoliy Baqtriya misolida. Dissertatsiyasi. Samarqand. 2009

⁴ Asqarov A.A. Abdullayev A. "Djarquton" Toshkent. Fan. O'zbekiston.SSSR. 1983-yil. 124-bet.



etnomadaniy birliklar aloqa maydoniga aylangan. Uning O'zbekiston qismida yuksak darajada rivojlangan o'troq dehqonchilik madaniyati shakllanib, bu madaniyat Sopollitepa, Ko'zali, Mo'lali, va Bo'ston yodgorliklar misolida o'rganilgan".⁵ Ushbu bu uch etnomadaniy vohalar (Shimoliy Afg'oniston, Janubiy Turkmaniston va Janubiy O'zbekiston) umumlashtirilib mahalliy tarixchi olimlar tomonidan umumiy nom ostida "Oks sivilizatsiyasi" deb atash taklif etildi.⁶

Mustaqillik davri tarixchi olimlari tomonidan o'tgan asrda olib borilgan tadqiqotlar davom ettirilib to'ldirildi va fikrlar umumlashtirildi. Xususan Sopolli madaniyati nomi osidagi barcha majmualardan jami 98 ta muxr (tumor) stratigrafik aniqlikda ntopilgan.⁷ Shimoliy Baqtriya hududida bronza davri tadqiqotlari O'tgan asrning 40-yillaridan boshlandi. A.M. Mandelshtam⁸ so'ngi bronza davri qabrlarini Bishkek havzalaridan o'rgandi. B.A.Litvinskiy esa Vaxsh vohasida ikkita qabriston "Tigrovaya Balka" va "O'yko'l" qabristonlari so'ngra Janubiy Turkmanistonning qabrlarini Namozgoh VI madaniyatlarini bir-biri bilan bog'ladi. L.M.Albaum⁹ tomonidan Janubiy O'zbekistonda birinchi o'troq dehqonchilik madaniyati Kuchuktepa ochildi. 1963-65-yillarda esa Kuchuktepada tadqiqot ishlari

davom ettirildi. Kuchuktepa yodgorligi Murg'ob vohasidagi Yozdepe, Janubiy Turkmanistondagi Anau-IV A, Qadimgi Farg'onadagi Chust madaniyati bilan bir davrda hayot davom etgan. 1968-yilda esa Sopollitepa turar-joy massivlarini ochilishi, 1969-yildan boshlab ushbu majmuada tadqiqot ishlari olib borildi. 1971-yilda A.A.Asqarov janubiy-g'arbiy Ko'hitang tizmalarida, Ulonbuloqsoy qurigan kanali (Sherobod dayosi havzalarida) hududlaridan ikkita uncha katta bo'lmagan Kultepa va Kichiktepa topib o'rganildi, va arxeologik materiallar asosida to'ldirildi. 1973-yilda bahorida Sh.Pidayev va V. Pikkolar rahnomoligida yangi punkt Jarqo'ton ochildi. Guliston sovxozi hududida Sherobod markazidan uncha uzoq bo'lmagan, qadimgi Sherobod kanali, Bo'stonsoyning chap qirg'og'iga A.A.Asqarov tomonidan ikkita qabr ochib o'rganildi. 1974-yilda esa A.A.Asqarov Bo'stonsoyning o'ng tomonida 4 ta qabrni aniqladi. Xullas Sheroboddaryosi hududlarida ikkita yodgorlik: Ulonbuloqsoy markazida Sopollitepa va Bo'stonsoyda Jarqo'ton. Ushbu yodgorlik haqida Ustoz A.A.Asqarov shunday xotirlaydilar: "1973-yilda Lelingraddan V.M.Masson va A.A.Asqarov bilan birgalikda Surxondaryoning Angor tumanidagi antik davr obidasi Zartepa yodgorligining tadqiqot ishlari bilan band edi. Yozning jazirama issiq kunlari iyun oyi o'rtalarida arxeolog Shokir Pidayev qo'lida bir sopol parcha bilan xushhabar ya'ni yangi manzilgoh haqidagi xabarni olib keldi. Va barcha arxeologik jamoa Ushbu manzilgoh sari yo'l oldik".¹⁰

Surxondaryo vohasining turli hududlarida ham bronza davri

⁵ Karimova.D.O. Shimoliy Baqtriya aholisining dafn marosimlari va diniy e'tiqodlari (Bronza davri moddiy madaniyatlari yodgorliklari misolida), Toshkent. 2017.Avtoreferat. 48 bet.

⁶ Shaydullayev.Sh.B. Shaydullayev.A.Sh. O'zbekistonning moddiy madaniyati tarixi. Samarqand. 2015. 39-nashr.

⁷ Shaydullayev. A.Sh. Sopolli madaniyatining gliptikasi va sfragistinkasi. PhD Dissertatsiyasi Avtoreferati.

⁸ А.М. Мандельштам. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. Л. Наука. 1968. 132.

⁹ Л.И.Албаум. Поселение Кучуктепе в Узбекистане. МСПИАЭ. Баку. 1965. 59-60.

¹⁰ Asqarov.A.A. Eng qadimgi Shahar. Toshkent. Ma'naviyat.2001. 24 bet.



yodgorliklari birin-ketin aniqlanib qimmatbaho moddiy manbalar asosida tariximiz yana kenroq nuqtayi nazarlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Fikrimizning yorqin ifodasi sifatida Shurchi tumanida O'zbekiston Tarix Instituti Xamza rahbarligida Mo'lali bosqichida oid aholi punkti va qabrlar ochildi. Ushbu tuman mintaqasidan uncha uzoq bo'lmagan hududda ya'ni Mirshodi hududida Nomsiztepadan ham maxsus kulolchilik dastgohida yasalgan spool buyumlar majmuasi topildi. Bundan tashqari qiziljartepa qirg'oqlaridan ikkita aholi manzilgohi Qiziljartepa va Ochamaylitepa ochib o'rganildi. Ochamaylitepaning shimoliy-shatqiy tomonida esa bronza davriga oid qabrlar topilgan bo'lib, u Mo'lalitepa majmuasi bialn bir davrga oiddir. Mo'lalatepa majmuasidan uncha uzoq bo'lmagan Qiziljar va Qizilsuv kanallari yonida qadimgi tariximizning bronza davriga oid aholi turar-joy massivlari aniqlandi va u tarix zarvaraqlarida Bo'yrachitepa yodgorligi deb nom oldi.

1973-yilda akademik E.V. Rtveladze tomonida Bandixonning Urchulsoy kanali hududidan har-xil davrlarga oid yodgorliklar ochildi. O'zbekiston Madaniy ekspeditsiyasi tomonidan Shurchi va Bandixon hududlaridan yer qabrlar va Mo'lali davriga oid aholi punktlari ochildi. Oradan bir yil o'tgach Shimoliy Baqtriyaning Tojikiston respublikasi hududidan Sopolli madaniyatining Mo'lali davriga oid Nurek qabristonida 16 ta sopol qabr aniqlangan. Bu tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, Sopolli madaniyatining yodgorliklarining hududiy mintaqalari biz o'ylagandanda uzoq hududlarni qamrab olgan.

1975-yilda esa Qoratog'ning chap qirg'og'iga joylashgan Tandiryo'l hududlarda B.A.Litvinskiy tomonidan Regar rayoni ekspeditsiyasi tomonidan uncha chuqur bo'lmagan ammo juda qimmatbaho ashyolarga boy 38 ta qabr aniqlangan. Ushbu madaniyat sohibkorlari qabrlaridan 9 tasida shimol ko'chmanchilari Andronova madaniyatiga xos moddiy manbalar, va qolganlari Sopolli madaniyatining Jarqo'ton bosqichiga oid sopol buyumlar majmualari topib o'rganildi. Ahamiyatga molik tomoni shundan iboratki, Bishkent hududidan so'ngi bronza davriga oid Zarkamar qabristonidan qopqoqli sopol buyumlar majmuasi aniqlandi. Sopolli madaniyatiga xos yodgorliklar muallif A.A.Asqarov tomonidan ikki guruhga bo'linib klassifikatsiya qilingan:

1. Janubiy-g'arbiy Tojikiston hududidagi so'ngi bronza davriga oid Nurek va Tandiryo'l.
2. Bishkent-Vaxsh madaniyatiga xos yodgorliklar.(Ilk Tulxar, Mokoni-Mor, Tigrovaya Balka, Vaxsh, Jarko'l, Oykul, Zarkamar va Isamboyl)¹¹

Yuqoridagi barcha yodgorliklardan topilgan sopollarning tahliliga ko'ra, muallif shunday fikrga to'xtalgan. Janubiy Tojikistonning qabilalarining ijtimoiy kelib chiqishi chorvador xalq bo'lsa, Shimoliy Afg'onistondagi aholi esa o'troq dehqonchilik madaniyatini boshdan kechirganlar.

1969-yilda Sovet-Afg'on ekspeditsiyasi rahbarligida Amudaryoning chap qirg'og'iga Janubiy Baqtriya hududida qadimgi tosh davridan toki o'rta asrlar davrigacha bo'lgan davrga oid madaniy

¹¹ Asqarov A.A. Abdullayev A. Djarkutan" Toshkent. Fan. O'zbekiston.SSSR. 1983-yil.7-bet.



yodgorliklar ochildi. Bronza davriga oid yodgorliklarni I.V. Sarianidi tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi. 1960-yilda A.V. Vinogradov bronza davriga oid ikkita aholi turar joy manzilgohini Dashtli hududida ochib o'rgandi. Asosan Dashtli-1, Dashtli-3 chuqurroq o'rganildi. Dashtli-1 madaniy yodgorligi Amudaryo chorraxasida to'g'ri burchakli (110x90) mudofa devorlari bilan o'raglan bo'lib, asosan dahliz bilan ajratilgan ko'p xonalardan iborat. Deyarli 10 ta qabriston I.V.Sarianidi tomonidan o'rganilgan. Dashtli-3 yodgorlik majmuasiga to'xtaladigan bo'lsak, uning ko'rinishi "dumaloq bino" ko'rinishida bo'lib, atrofi ochiq asosan qishloq xo'jaligi uchun binolar mavjud. Dumaloq bino va saroyning qazish chog'ida 87 ta kirish qabrlar (yuqorisi eshik bilan qoplangan) ochib o'rganildi. Dashtli-3 madaniy yodgorligi yonida katakomba tipidagi 5 ta qabr ochilganda barcha inson skletlari yon tomonga bukilgan va boshi asosan shimolga qaratilgan holatga dafn etilgan. Bu shundan dalolat beradiki, dafn marosimlari, qabrlardagi joylashuv holati Sopolli madaniyatining Jarqo'ton bosqichiga oiddir. Bundan tashqari Davlatobod vohasida Andxoem va Maymana orasida miloddan avvalgi II mingyillikning o'rtalarida oid yodgorliklar Tikar1,2,3,4,5, misolida o'rganilgan.

Shimoliy Afg'onistonning bronza davriga oid 30 ga yaqin yodgorliklar majmuasi 4 ta ddehqonchilik vohasiga bo'lingan: Davlatobod, Farruxobod, Dashtli, Nichkin.

Ammo V.I. Sarianidi tomonidan bronza davriga oid bo'lgan Shimoliy Afg'onistondagi yodgorliklarni quyidagicha klassifikatsiya qiladi: Girday va Tikar. (Davlatobod vohasi hududida joylashgan).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishni joiz deb topdimki, 50-yillarning oxiri 60-yillarning boshida Sovetlar hukmronligi ostida aynan tariximizning qorong'u sahifalarida qanchadan-qancha tazyiqlar va tahdidlar bo'lishiga qaramasdan tariximizning zabardast olimlari A.A.Asqarov va u boshchilik qilgan guruh a'zolari tomonidan mustaqil jonajon O'zbekistonimizning eng chekka janubiy mintaqalari va unga tutash bo'lgan qo'shni respublikalar hududlaridagi madaniy yodgorliklar birin-ketin ochildi va keng tadqiqotlar olib borilib bir qancha qimmatbaho risola va kitoblar bitilib kitobxonlarga keng miqyosda taqdim etildi. Ushbu maqolani yozishda benihoya katta ahamiyat kasb etgan A.A.Asqarov va A.Abdullayevning "Jarqo'ton" nomli risolasi o'zbek tiliga tarjima qilinib keng o'rin berildi.

.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" Respublika ilmiy seminarining 78-umummilliy yig'ini nutqidan. 2022 y.
2. Asqarov A.A. Abdullayev A. "Djarkutan" Toshkent. Fan. O'zbekiston SSSR. 1983-yil.7-bet.
3. Asqarov.A.A. Eng qadimgi Shahar. Toshkent. Ma'naviyat.2001. 24 bet.
4. Asqarov.A.A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent. O'zbekiston. 2019. 146-bet.



5. Karimova.D.O. Shimoliy Baqtriya aholisining dafn marosimlari va diniy e'tiqodlari (Bronza davri moddiy madaniyatlari yodgorliklari misolida), Toshkent. 2017.Avtoreferat. 48 bet.
6. Kurbonov, Abdusamad M. "ALTARS IN TEMPLES OF BRONZE AGE." Ўтмишга назар журнали 24.2 (2019).
7. Meligaliyevich, Qurbonov Abdusamad. "NEW UZBEKISTAN IN A NEW NEIGHBORHOOD RELATIONS WITH THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA." Eurasian Journal of Academic Research 1.6 (2021): 12-19.
8. Shaydullayev. A.Sh. Sopoli madaniyatining gliptikasi va sfragistinkasi. PhD Dissertatsiyasi Avtoreferati.
9. Shaydullayev. Sh.B. "O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (Shimoliy Baqtriya misolida). Dissertatsiya. Samarqand. 2009
10. Shaydullayev. Sh.B. Shaydullayev. A.Sh. O'zbekistonning moddiy madaniyati tarixi. Samarqand. 2015. 39-nashr.
11. А.М. Мандельштам. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. Л. Наука. 1968. 132.
12. Курбанов, Абдусамад Мелигалиевич. "БРОНЗА ДАВРИ ИБОДАТХОНАЛАРИДА УЧРАЙДИГАН АЛТАРЛАР." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 24 (2019).
13. Л.И. Албаум. Поселение Кучуктепе в Узбекистане. МСПИАЭ. Баку. 1965. 59-60.